

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 4 (10)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобоқулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Акрамова Фазилят Артикбаевна ПРОМЫШЛЕННЫЕ КАДРЫ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД: СТАНОВЛЕНИЕ И ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ	7
2. Karimjonov Jasurbek Muxtorjonovich O‘ZBEKISTONDA TARIXIY SHAXSLAR NOMIDAGI MUKOFOTLAR TA‘SIS ETILISHI: TAQDIRLASH JARAYONLARI	16
3. Кобзева Ольга Петровна АКАДЕМИК Э. В. РТВЕЛАДЗЕ - ЖИЗНЬ, ОТДАННАЯ НАУКЕ	25
4. Ктайбеков Саламат Маманович ВОЗРОЖДЕНИЕ ВЕЛИКОГО ШЕЛКОВОГО ПУТИ И НОВЫЙ ЭТАП ВО ВЗАИМООТНОШЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА И ЯПОНИИ	34
5. Mamatqulov Bekzod Sherozovich O‘ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAJRIBA VA NATIJALAR (1925-1991 YILLAR)	45
6. Маматова Махфуза Бахриддиновна ТОРГОВЛЯ ИНДИЙСКИХ ЧАЕВ В СРЕДНЕЙ АЗИИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX - НАЧАЛА XX ВЕКА)	54
7. Mirzayev Komiljon Mamirjonovich O‘RTA OSIYO ARXEOLOGIYASI KAFEDRASINING PAYDO BO‘LISHI ZARURIYATLARI	61
8. Мусаев Нуриддин Умирзакович РОССИЯ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА ТУРКИСТОНДА ПАХТАЧИЛИККА ЭЪТИБОРНИНГ КУЧАЙТИРИЛИШИ	69
9. Муминов Алишер Гаффарович., Эрназаров Шермухаммед Эшбекович ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИ ЎЗБЕКИСТОНДА ТАРИХЧИЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИ	83
10. Muxamedov Yoqubjon Qodirovich G‘ARBIY TURK XOQONLIGI VA ERON SOSONIYLARI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR	91
11. Нарбеков Абдикамил Вафаевич НАСЕЛЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА В ПЕРИОД НАЦИОНАЛЬНО-ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО РАЗМЕЖЕВАНИЯ В СРЕДНЕЙ АЗИИ	102
12. Назаров Хумоюн Алишерович., Одилова Нилюфар Зоиржон кизи РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЕРОВАНИЯ В СЕВЕРНОЙ БАКТРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ КУШАН	116

13. Normurodov Dilmurod Rashidovich IX–XII-ASRLARDAGI TOSHKENT VOHASI (SHOSH-ILOQ)NING SHISHASOZLIGI	132
14. Olimjonov Xabibjon Abduxalim o‘g‘li TURKISTON ASSRDA KUTUBXONA ISHINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI CHORA-TADBIRLAR	147
15. Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich O‘RTA OSIYO TEMIR YO‘LINING BUXORO AMIRLIGIGA KIRIB KELISHI VA TEMIR YO‘L BEKATLARINING FAOLIYATI	155
16. Rahmonqulova Zumrad Boyhurozovna O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA USMONIYLAR DAVLATI O‘RTASIDAGI IQTISODIY ALOQALAR TARIXIDAN	168
17. Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич ВКЛАД ВЫПУСКНИКОВ КАФЕДРЫ АРХЕОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	178
18. Саипова Камола Давляталиевна УПРАВЛЕНИЕ В ТУРКЕСТАНСКОЙ АСС В ПЕРВЫЕ ГОДЫ СТАНОВЛЕНИЯ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ	184
19. Сиддиков Равшан Бердимуратович ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДАГИ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЖАРАЁНЛАРИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР	189
20. Tog‘ayev Jasur Erkinovich QADIMGI DAVR ME‘MORCHILIGI TARIXIY REKONSTRUKSIYASIGA DOIR (JANUBIY O‘ZBEKISTON MISOLIDA)	206
21. Тўхтабоева Дилафрўз Эргашевна ЖАҲОН ШАҲАРЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ КЎРИНИШИ	214
22. Ubaydullayev Ikromjon Farxod o‘g‘li O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI ANTIK DAVLATLARNING TARIXIY UZVIYLIGI VA RIVOJLANISH JARAYONLARI	219
23. Usarov Umidjon Abdimavlyanovich XIX ASRNING 60–70-YILLARIDA ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O‘LKASIDAGI YER EGALIGI VA MULKCHILIK MUNOSABATLARIGA OID SIYOSATI (Rasmiy amaldorlari va ishchi kommissiya vakillarining faoliyati misolida)	232
24. Холикулова Шахноза Баймахаматовна ЎЗБЕКИСТОННИНГ ИЛК КИМЁ КОРХОНАСИ ТАРИХИ	242
25. Холикулов Ахмад Баймахаматович ВОҲАСИ БЕКЛИКЛАРИНИНГ БУХОРО АМИРЛИГИ СИЁСИЙ ТАРИХИДА ТУТГАН ЎРНИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСРНИНГ БОШЛАРИ)	252

26. Худойкуов Урал Каримович ЖАҲОН ОЗИҚ- ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИНГ УСТУВОРЛИГИ ВА РИМ ДЕКЛАРАЦИЯСИ	260
27. Юнусова Хуршида Эркиновна ЎЗБЕКИСТОН ССР ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИ ҲОЛАТИ ВА МУАММОЛАРИ (XX АСР 70-80 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА)	268

Normurodov D. R.

«Arxeologiya va etnologiya» kafedrası dotsenti., PhD

O'zbekiston Milliy universiteti

d.r.normurodov@mail.ru**IX–XII-ASRLARDAGI TOSHKENT VOHASI (SHOSH-ILOQ)NING SHISHASOZLIGI****ANNOTATSIYA**

Maqolada qadimgi davr va o'rta asrlarda Choch, Shosh-Iloq tarixiy-madaniy o'lkasi bo'lgan Toshkent vohasinin 9–12-asrlardagi shishasozligi yoritilgan. Unda 19-asrning oxirlaridan hozirgacha bo'lgan davrda vohaning Binkat–Toshkent, Bonokat–Shohruxiya, Xarashkat–Qanqa, Kavardan–Kabarna, Tunkat–Imloq, Abbrig'–Obliq kabi Shahar xarobalaridan olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda topilgan shisha mahsulotlarining o'rganilishi, ularning tayyorlanish usullari, ranglari turlari va vazifalari bayon qilingan. Shosh-Iloqda yuqori sifatli shisha mahsulotlari ishlab chiqarilganligi, unday buyumlarning ishlab chiqarilishi aholisining estetik didi va madaniyati bilan bo'g'likligi qayd qilingan.

Kalit so'zlar: Shosh, Iloq, Toshkent, Binkat, Qanqa, Shohruxiya, hunarmandchilik, shisha, shishasozlik, grafın, kolba.

KIRISH

Insoniyat boshqa jonzodlardan kashfiyotlar qila olishi va ulardan oqilona foydalana olishi bilan boshqa jonzodlardan ustun turadi. Daslab, g'or, ungir va ochiq manzilgohlarda yashagan qadimgi odamlar toshdan mehnat va ov qurollarini yasashni kashf qilgan. Keyinchalik qadimgi odamlarning jismoniy va aqliy rivojlanishi yangi kashfiyotlarning ixtirosi olib kelgan. Turar joylar, turarjoyli qishloqlar, shaharlarning soni ko'paygan. Ham chorvador, ham dehqonlar orasida uy hunarmandchiligi yuritilishidan ixtisoslashgan hunarmandchilik rivochigacha taraqqiy etib borgan. Hunarmandchilikning toshtaroshlik, yog'ochga va suyakka ishlov berish, kulolchilik, metalsozlik, shishasozlik kabi sohalari tarmoqlangan. Bu hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda shishasozlikning o'ziga xos murakkabligi bor. Ushbu sohaning paydo bo'lishi va rivoji odamlarning estetik didining oshishi bilan ham belgilanadi. Shishadan dastlab taqinchoqlar yasalgan bo'lib, ularning paydo bo'lishi miloddan oldingi 2-ming yillikdan nariga borib taqaladi (Misrda). Keyinchalik shishadan turli xo'jalik va oshxona buyumlarini ishlab chiqarish taraqqiy etib borgan.

O'rta Osiyoda shishasozlik buyumlarining ishlab chiqarilishi antik davrdan shakllanib, ilk o'rta asrlarda yuksalgan. 9–12-asrlarga kelib esa keng ko'lamdagi maqsadlar uchun turli xil mahsulotlar ishlab chiqarishning shakllanishi oshgan.

Xususan, bu davrda Toshkent vohasidagi shaharlarda nafis va bejirim shisha buyumlarini ishlab chiqarish o'lg'a qo'yilgan. Qaryib bir yarim asr davomida ushbu vohada olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda ko'plab shisha buyum namunalarining topilishi yuqoridagi fikrimizni yaqqol tasdig'idir.

Jahonda 18-asrdan boshlab arxeologik tadqiqotlarning jonlanishi shisha buyumlarini topilishi va ularni ilmiy asosda o'rganishga turtki bergan. Keyingi asrda bunday buyumlarni, ularning tarkibini o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib borgan. 20-asrda fizik-kimyoviy tahlil usullari rivojlanishi natijasida shisha buyumlarning tarkibi, ishlab chiqarish texnikasi, xom ashyo manbalari o'rganilgan. Qadimiy shisha topilmalarini dastlab arxeolog yoki kam sonli kimyogar mutaxassislar o'rganib ma'lum tarixiy masalalar va kimyoviy ma'lumotlarni aniqlash inkoni bo'lgan. Xususan, 1919-yilda X. R. Xoll Mesopotamiya hududlaridan yeng qadimgi shishalar va ularning kimyoviy tarkibi aniqlagan [3]. Miloddan oldingi 2000-yillarga tegishli bo'lgan bu shishalarni kimyoviy tarkibini G.Garner tahlil qilingan. Tahlil natijasida, bu shisha tarkibining asosiy qismi (65%) kremniy oksidi (SiO_2)dan tashkil topganligini ko'rsatgan. Bugungi kunda esa shish topilmalari arxeologiya, kimyo, san'atshunoslik va texnologiya sohalari mutahassislarining hamkorlikda ish olib borib shisha buyumlarni o'rganishda yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqdalar.

O'zbekistonda arxeologik shishasozlik buyumlarini o'rganishga 20-asrning o'rtalaridan jiddiy e'tibor qaratilgan. Jumladan, Samarqand shishasozligining tadqiq etilishi shisha hunarmanchiligining o'rni beqiyos ekanligi ko'rsatgan. Shuningdek, janubda Sirdaryo, shimolda Tangritog'ning g'arbiy tizmalari bo'lgan Chotqol va Qurama tog'lari o'ralgan, shimolda Keles daryosi havzasi, janubda Qurama tog'ining suvayrig'ichi va Sirdaryoning qayrilishi joyigacha bo'lgan hududda cho'zil Toshkent vohasi shishasozligi bo'yicha ham qiziqarli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Vohaning Binkat–Toshkent, Mingo'rik, Xonobodtepa, Tavkattepa, Buzgotepa, Xarashkat–Qanqa, Banokat–Shohruxiya, Abrlig'–Obliq, Tunkat–Imloq, Kabarna–Kavardan, Shoshtepa kabi arxeologik yodgorliklarning 9–12-asrlarda oid qatlamlaridan ko'plab shishasozlik ashyolari topib o'rganilgan. Ularning xom ashyosi, tayyorlanishi, turlari, vazifasi kabi masalalar yoritilgan.

Toshkent vohadining 9–12-asrlarga oid shisha buyumlarini 19-asrning oxira va XX asr boshlarida arxeologiya havaskorlari tomonidan to'plana boshlagan. Xususan, 1896-yilda Toshkentdagi Shoshtepa arxeologik yodgorligidan Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi a'zolari o'rta asrlarga tegishli shisha buyumlarning namunalarini topgan [32]. 1898-yilda Ye. Smirnov vohada olib borgan ekspeditsiyalari davomida sopol buyum, mis tangalar qatorida shisha buyumlarni ham yig'gan va ularning umumiy tavsifini bergan [16; 29]. Bu topilmalar asosida u voha madaniyatini tasvirlashga harakat qilgan. 1907-yilda esa

I.A. Belyaev Oqqo'rg'on tumanidagi Xarashkat–Qanqadan shisha buyumlarni topgan [30]. Bu topilmalar shishalarning turli shakllari va ularning qo'llanilishi haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishda muhim o'rin tutgan. Shoshtepa va Qanqaddan topilga ushbu shishalar keyinchalik ilmiy arxeologik tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilgan.

20-asrning ikkinchi choragidan to 90-yillarigacha Toshkent vohasida keng ko'lamdagi qidiruv, qazuv, kuzatuv xarakteridagi arxeologik tadqiqotlarning olib borilishi vohaning tarixi va madaniyatini, jumladan, shishasozligini ilmiy tahlil qilish, chuqur o'rganish bosqichi bo'ldi. Shishadan tayyorlangan taqinchoq-munchoqlar, turli xo'jalik va maishiy idishlar qazishmalarning madaniy qatlamlarda aniq topila boshlandi. Bu esa voha aholisi hayotida shisha buyumlarning o'rnini va rivojlanish bosqichlarini aniqlash imkonini berdi. Bu bosqichda Toshkent vohada olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda topilgan shishasozlik buyumlarining o'rganilishida M.Ye.Masson, Yu.F.Buryakov, V.A.Bulatova, M.I.Filanovich, M.Aminjonova, A.A.Abdurazakov, M.I.Bezborodov, Yu.A.Zadneprovskiy, L.G.Brusenko, Z.S.Galneva, D.K.Mirzaaxmedov, S.Ilyasova, Sh.T.Adilov kabi arxeologlarning tadqiqotlari taqsiqga loyiqdir [3; 4; 5; 6; 11; 15; 19; 24; 31; 32]. Shuni ham qayd qilish kerakki, ushbu tadqiqotlarda asosan vohaning 9–12-asrlarga old shishasozligiga e'tibor qaratilgan.

1957-yilda V.A.Bulatova Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi yonida olib borgan 5-qazishmasida bir dona riton topilgan bo'lib, uning 11–12-asrlarga oidligi M.T.Aminjonova tomonidan aniqlangan [5; 6; 32; 33]. 1966-yildagi Toshkent zilzilasikeyin tashkil qilingan Toshkent arxeologiya ekspiditsiyasi tomonidan muntazam olib borilgan arxeologik dala tadqiqotlari shishasozlikning taraqqiy etganligi aniqlashga olib kelgan. Toshkentning hozirgi Chorsu bozari va undan 2-3 km uzoqlikkacha bo'lgan hududlarda, shuningdek, Toshkent shahri hududidagi Xonobodtepa, Tavkattepa, Buzgotepa va boshqa yirik arxeologik yodgorliklaridan bunday shishasozlik buyumlarining to'plamlari topib o'rganilgan [13; 32; 33].

20-asrning 2-yarmida Yu.F.Buryakov boshchiligida Toshkent viloyati bo'yilib olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda ham shishasozlik namunalarining ko'plab nusxalari topilgan. Jumladan, Nurafshon (To'ytepa) shahridagi Nukat–Ulkanto'ytepa, Ohangaron tumanidagi Dukent–Dukenttepa, Imloq–Tunkat, Abriq–Obriq, Bo'ka tumanidagi Bo'ka–Samsarak–Bo'ka, Oqqo'rg'on tumanidagi Xarashkat–Qanqa, Banokat–Shohruxiya, Yuqori Chirchiq tumanidagi Kabarna–Kavardan kabi arxeologik yodgorliklaridan 9–12-asrlarga oid shishalar topilgan [12; 13; 14]. Jumladan, 1973–1974-yillarda Kavardandan 19 ta buyumga tegishli shisha siniqlari topilgan [12]. 1976–1977-yillarda esa Qanqaning 3-shahristonida olib borilgan tadqiqotlarda topilgan bir qancha shisha buyumlar 30 dona tangalar

bilan bir joyda, yonma-yon topilganligi boisdan ularning 10-asrning 2-yarmi va 11-asrning 1-yarmiga oidligi aniqlangan [11].

1984–1985-yillarda Toshkent shahrining eski shahar qismini - oʻrta asrlardagi Binkat (Chorsu atroflari) va Mingoʻryuk (S.Azimov koʻchasida) shahari qoldigʻining shahriston hududini oʻrganish bilan Toshkent arxeologiya ekispidisiyasi guruhi azolaridan J.K.Mirzaaxmedov, S.Ilyasova, Sh. T. Adilovlar shishasozlim masalasiga ham eʼtibor qaratganlar [24]. Ayniqsa, bu tadqiqotdahozirogi Chorsu (Eski Juva) bozorida olib borilayotgan yangi qurilish maydonlaridan noyob shisha buyumlar yigʻilgan. Keyinroq ular Binkatning 9–12-asrlarga oid shahriston va rabodi chegarasida yashgan shaharlik aholi vakillariga tegishli ekanligi qayd qilingan [19; 24; 32]. Bu hulosaga kelinishiga shu erlik aholiga tegishli 10–11-asrning oʻrtalariga tegishli oʻnta xoʻjalik oʻralari (badrab) dan shishalarning topilganligi bilan asoslangan [20; 21; 24]. Shuningdek, topilgan buyumlari turlari (kolba, grafin, bola beshigi tuvagi), oʻziga xosligi, yasaliishi, ishlatilishiga batafsil toʻxtalib oʻtilgan [24; 31].

Toshkent arxeologiya ekispidisiyasi guruhi azolarining tadqiqotlarda Mingoʻrik shahar xarobasining shahristonidagi turar-joy uyi ostidagi chuqur xoʻjalik oʻrasi (badrab) dan erkin puflash usulida yasalgan shaffof–sargʻish rangdagi, dastali va jumragli, uncha katta boʻlmagan sferik shaklli koʻza-suvdon topilib, uning 9-asrning 2-yarmi oʻrtalariga oidligi aniqlangan [24]. Ushbu jumragli shisha idishcha emizikli bolaga suyuqlik ichirishda va dekorativ vazifani bajarga moʻljallanganligi aytilgan [24].

Shuni ham qayd etish kerakki, XX asrning oʻrtalarida boshlangan sistemali arxeologik tadqiqotlar natijasida nafaqat Toshkent vohasining umuman, Markaziy Osiyo hududidagi qadimiy shishasozlik anʼanalari boʻyicha ilmiy tasavvur shakllana boshladi. Amma, bu davrda Markaziy Osiyo muhim qadimiy shishasozlik markazlaridan biri sifatida eʼtirof etildi. Ilmiy izlanishlarda arxeologik topilmalarga asoslangan holda umumiy tasnif va xronologiya yaratishga intilish kuzatiladi. Xususan, A.A. Abdurazzoqov, M.A. Bezborodov va Yu.A. Zadneprovskiy kabi tadqiqotchilarning ishlari bu sohada alohida ahamiyat kasb etadi [3]. Ular oʻz tadqiqotlarida Oʻrta Osiyoda, xususan Toshkent vohasida shisha ishlab chiqarish va uni qayta ishlash texnikasining ilk shakllanishi va uning XVII asrgacha boʻlgan rivojlanish bosqichlarini yoritishga harakat qildilar. Ular shishasozlik sanoatiga oid mavjud boʻlgan barcha arxeologik, yozma manbalarni va kimyoviy tahlillarni oʻzaro bogʻliq holda muammoni tahlil etdilar. Shu bilan birga, Markaziy Osiyodagi shishasozlik rivoji bilan unga yaqin boʻlgan boshqa hududlar — Eron, Hindiston, Xitoy shishasozlik maktablari oʻrtasidagi oʻxshashlik va farqli jihatlarini ham tadqiq qilishga alohida eʼtibor qaratishgan. Ushbu ilmiy izlanishlar natijasida shishasozlikning asosiy bosqichlari: dastlabki shisha

mahsulotlarining paydo bo'lishi, unda tabiiy rang beruvchi moddalardan foydalanish, tayyorlash texnikasining takomillashuvi va o'rta asrlarda maxsus ustaxonalar faoliyatining kengayishi kabi jarayonlar aniqlandi. Shu tariqa, XX asrning ikkinchi yarmining 90-yillarigacha bo'lgan davrda Toshkent vohasi shishasozlik madaniyati bo'yicha ilmiy asoslangan, mukammal xulosalar uchun asosiy kantentlar yaratildi.

O'zbekistonning mustaqilligi yillaridagi (XX asrning 90-yillaridan – 2025-yilga qadar) Toshkent vohasi shishasozligining o'rganilishi oldingi bosqichda yaratilgan ilmiy uslublarda olib borilmoqda. Shuningdek oldingi bosqichdagi arxeologik tadqiqotlarda topilgan shishasozlik buyumlarini qayta tahlil qilishga uinilmoqda. Jumladan, 2010-yilda J.Mirzaaxmedovning Buxoro, Quva, Samarqand shishasozligi qatorida Toshkentning 9–12 asrlardagi shishasozli, xususan, Binkat–Toshkentdan topilgan shisha idishlarni qayta tahlilga tortganligi yuqorida keltirilgan fikrni tasdiqlaydi [23]. U 9–12-asrlarda O'rta Osiyoning boshqa hududlari qatorida Toshkent shishasozligi yuksak darajada taraqqiy etganligini yetarli misollar asosida isbotlashga harakat qildi.

D.Normurodov tomonidan 2011-yilga Imloq–Tunkatda, 2014-yilda Banokat–Shohruxiyada olib borilgan arxiologik tadqiqotlarda shishasozlik buyumlari topilib, ular 11–12-asrlarga oidligi aniqlandi [4; 25; 26]. U Banokat–Shohruxiyadan topilgan topilmalarni to'rt guruhga bo'lib tahlil qilgan.

2019–2020-yillarda A.Asqarov, X.Matyaqubov, D.Normurodov, B.Isabekov, U.Ismailovlar Ohangaron daryosining chap qirg'og'i Suyurlitepa yodgorligining Arkida olib borilgan arxeologik qazishma davomida 45 dona shisha idishlar parchasi topildi [8]. Ko'k, oq, safsar rangdagi shisha siniqlari juda nafis bo'lib, bu shisha bo'laklaridan 7 tasining funksional vazifasini aniqlash imkoni bo'lmagan. Qolganlaridan 2 tasi mitti flakonchalarga, ikning tag qismi, 2 tasi krujka dastasi, 2 tasi shakli tuxumsimon taglik nimkosalardan iboratligi aniqlanib, ularning asosiy qismi mahalliy hunarmandlar mahsulotlar ekanligi to'g'risida fikr bildirilgan [8].

2023-yilda A.Asqarov, B.Isabekov, B.Jo'raqulov, O.Mamirov, U.Ismoilov tomonidan Ohangaron daryosining chap qirg'og'i, Sovuqbuloqsoy bilan Otchoparsoy orasida, Obiz (Sarsoylik) qishlog'i hududida joylashgan Imloq–Tunkatta olib borgan tadqiqotlarida, jumladan, qazishmaning 1-xonasidan shisha namunalari topilgan [7]. Ammo, hozircha ularning tuzilishi yoki boshqa hususiyatlari bo'yicha to'liq ma'lumotlar maqola sifatida chop etilmagan.

Umuman olganda, 19-asrning oxirlaridan 21-asrning 1-choragi oxirlarigacha bo'lgan davrda Toshkent vohasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar vohaning shishasozlik tarixini tiklashga yordam bergan. Dastlab shishalarni yig'ishdan boshlangan ishlar keyinchalik ularning tahlillarini olish, yasaliish texnikasi haqida

ma'lumotlarini qo'lga kiritish, shishasozlik buyumlarining turlari va ularning vazifalarini aniqlash imkonini yaratgan.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Toshkent vohasida 9–12-asrlardagi shishasozlik tarixini o'rganish orqali shisha ishlab chiqarish sanoati turining emas, balki mintaqaning iqtisodiy, madaniy va ilmiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlovchi muhim ilmiy yo'nalishlarni belgilash mumkin. Arxeologik topilmalar, jumladan, shisha idishlar, toshqollar va boshqa mahsulotlar, Toshkent vohasida shishasozlikning ilk bosqichlari o'rta asrlardan rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu topilmalar nafaqat vohada shisha mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj va texnologik bilimlar mavjudligini, balki ularning ishlab chiqarish jarayoni ancha puxta bo'lganligini ham tasdiqlaydi. Vohada 20-asrda olib borilgan tizimli arxeologik qazishmalar, ayniqsa, Binkat (hozirgi Toshkent) hududlaridan olingan materiallar, shishasozlikning mahalliy an'analari va ularning rivojlanish bosqichlari haqida boy tasavvur beradi. Shu asosda aytish mumkinki, Toshkent vohasi shishasozlik ishlab chiqarishining muhim markazlari Binkat–Toshkent, Qanqa–Xarashkat, Banokat–Shohruhiya, Imloq–Tunkat, Nukat–Ulkantepa, Obliq–Abrliqlarda joylashgan bo'lgan [17; 32]. Toshkent vohasining bu va boshqa arxeologik yodgorliklaridan topilgan shisha idishlar, ularning parchalari o'zining nafisligi, sifati turlarining xilma-xilligi bilan bu davrda shishasozlik san'atining ancha yo'qori o'rinlarni egallaganligini ko'rsatadi. Hozirgi Toshkent vohasi hududini o'z ichiga olgan Shosh va Iloqning 9–12-asrlardagi shisha yasash sohasi hunarmandchilikda etakchi o'rinni egallagan. Dastlabki shisha buyumlar turi kamroq, qo'polroq xira va ko'kimtir ko'rinishda bo'lib, sekinlik bilan shakillangan. X asrlarga kelib Shosh–Iloqdagi turli shahar va yirik qishloqlarda uning sifatli ko'tarilib va turlari ko'paygan. Ularning pushti, qizg'ish, sarg'sh, och yashil, och moviy, qoramtir rangdagilari bo'lgan [18]. Ayrimlariga hashamdor naqshlar tushirilgan.

Toshkent vohasining yodgorligidan topilgan 9–12-asrlarga oid shisha idishlar o'zining nafisligi, sifati, turlarining xilma-xilligi bilan shishasozlik san'atining ancha yuqori o'rinlarni egallaganligining shohidi bo'lamiz. Vohasida oid Binkat–Toshkent, Banokat–Shohruhiya, Xarashkat–Qanqa, Imloq–Tunkat, Obliq kabi shaharlarni 9–12-asrlarga tegishli qatlamlaridan topilgan shoffof shisha buyumlari odatda naysimon moslamada ma'lum miqdodagi eritma og'iz tortib, so'ng havoda puflab yasatilgan. Puflash paytida shisha idishlarning devorlarida hosil bo'ladigan pufakchalar Toshkent vohasining 9–12-asrlarga oid shishalarida nisbatan kamligi ko'zga tashlanadi. Idishlarning ko'pchiligi aylanma erkin puflash usulida tayyorlangani uchun ular shaffofligi va yuzasining yaltiroqligi bilan ajralib turadi. Faqatgina, shisha idashlarning kichik bir qismi qolipda ya'ni, puflamasdan

(puflab shaklga aylantirmasdan) ishlangan murakkab boʻrtma naqshli idishlardan . Shisha idishlar funksional vazifasiga beshta: koʻra buyumlar shohona (oshxona) idishlar, xoʻjalik-qurilish buyumlar, sanitariy-gigena idishlari, atir-upa idishlari, kimyoviy idishlar guruhiga boʻlinadi. Ular quyidagicha tavsifga ega:

Shohona idishlar (yoki oshxona idishlari). Bu guruhdagi idishlar nafaqat toʻgʻridan toʻgʻri oʻz vazifasini oʻtashi maqsadida, balki uy ichini, “shohona” dasturxonlarni bezash uchun ham ishlatilgan. Ular eng koʻp sonli va turlari boʻyicha xilma-xil boʻlgan shisha idishlar guruhidir. Shuningdek, ular sifati jihatdan ham bir-biridan farq qilgan. Misol uchun, yuqorida taʼkidlaganimizdek mehmonlar uchun nozik idishlardan foydalanishgan. Ularga piyolalar, kosalar, kosasimon idishlar, stakanlar, ryumkalar, qadah-krujka (chashka)lar, koʻzasimon krujkalari, koʻzachalar kiradi.

Kosasimon idishlar. Ularning namunasi Binkat – Toshkent shahristonidan topilgan [24]. Bu turdagi idishlar nisbatan tiniq, shaffof-yashil rangda boʻlgan. Ular past silindrsimon shaklga ega. U avval aylanma harakatdagi erkin puflash yoʻli bilan shaklga kiltirilib, keyin sirtida relefli naqsh hosil qilish uchun qolipga solib puflangan. Ayrim idishlarning tanasi boʻylab birin-ketin joylashgan doirachalar, boshqalarida esa birin-ketin kelgan bodomsimon koʻrinishidagi naqshlar bilan bezatilgan. Idishlarning har ikkala holatdagi alohida-alohida bezaklari umumiy boʻrtma manzarani kasb etgan. Shisha idishlardagi bunday bezaklarning oʻxshashlari Paykand [22], Afrosiyob [33], Axsikat [27], Hulbuk [3] kabi shahar xarobalaridan topilgan shisha buyumlarning bezaklarida uchraydi. Bundan tashqari, 9–12-asrlarda bunday shakldagi idishlar Eron hududlarida ham juda keng tarqalgan edi [1; 3]. Odatda kosa (yoki piyola)lar deb ataladigan bunday idishlar kundalik turmushda suyuq ichimliklar va ovqatlarni solish uchun ishlatilmagan. Ularning kengligi, devorining pastligi va tik (vertikal) shakldaligi bu maqsadda foydalanishda noqulaylik yuzaga keltiradi. Shuning uchun, bunday idishlardan turli xil ziravorlar, mayda mevachalar, quritilgan mevalar, har xil turdagi pista-yongʻoqlar va qattiq qandolat mahsulotlari solib dasturxonni bezash uchun foydalanilgan [24].

Kosacha (piyola)lar. Bu turdagi idishlar Binkan–Toshkent [24] va Qanqadan topilgan [11]. Ular kesilgan konussimon shaklda boʻlib, och yashil va koʻkimtir shaffof shishadan tayyorlangan. Aksariyat hollarda bunday idishlarning devori boʻrtma-botiqli koʻrinishda naqsh bilan bezatilgan. Ular ham yuqorida qayd qilingan kosasimon idishlar kabi havoda puflab erkin aylantirish va keyin qolipga solib puflash usulida yasalgan. Ayrim idishlardagi bezaklar shaxmat doskasi tartibidagi ellipsoid bezakli boʻlsa, qolganlarida romb va uchburchaklarning toʻplami tushirilgan. Shuningdek, idishlarining chetlari boʻylab spiral shaklida buralgan, halqa shakilda aylangan bezaklar bilan ham bezatilgan. Shunga oʻxshash bezakli

idishlar Samarqanddan jumladan, Afrosiyob [34], Gurmali-tepa [28] (Surxondaryo viloyatida), hatto Misrdan topilgan [1]. Ushbu idishlar uy xonalarini bezab turishida, mehmonlarni qabul qilishdagi dasturxon tuzashda ishlatilgan. Ularga mevalar, suyuqlar yoki yarim suyuq qandolat mahsulotlari, uzum murabbosi - shinni, asal, nisholda va boshqalar suzilgan. Markaziy Osiyoda ular keng tarqalgan shisha buyumlar sirasiga kiradi. Ularni diametri turli xil – 6 sm dan – 14 sm gacha, balandligi esa – 5 sm dan – 10 sm gacha bo‘gan.

Stakancha va krujkachalar (1:6, 1:8-rasmlar). Bu turdagi shisha idishlar Binkat–Toshkent [24] va Kabarna–Kavardandan topilgan [12]. Ular kichik hajmdagi mo‘rt idishlar bo‘lib, bir xil silindrsimon shaklga ega. Ularning diametri taxminan bo‘yi (balandligi) ning o‘lchami bilan bir xil kattalikda. Stakanlar asosan havorangda, krujkachalar esa sariq rangda bo‘lgan. Ayrimlarinin yarim oval shakldagi tik o‘rnashgan tutqichi bo‘lib, u yonining o‘rta qismiga yopishtirilgan. Ba‘zan bunday tutqichlarning tepa va pastida ikkita gorizontaal cho‘zilib chiqiq qismi bo‘lib, ular halqaga ko‘rsatkich barmoqni kiritib, bosh va o‘rta barmoqlar bilan qulay siqish uchun mo‘ljallangan. Bunga o‘xshash idishlar O‘rta Osiyo va Eron keng tarqalgan [3; 6; 34].

Qadahlar. Bu turdagi shisha idishlar Binkat–Toshkent [24] va Banokat–Shohruxiyadan topilgan [2]. Ular sarg‘ish rangda bo‘lib, shunga o‘xshash zamonaviy idishlarga juda o‘xshash. Odatda ushbu turdagi idishlarning balandligi – 19 sm, tagini aylanasi – 5,5 sm, og‘iz qismini aylanasi – 14 sm ni tashkil qilgan. Ular qo‘ng‘iroq shaklga, tarnovsimon oyoqqa va oyo‘ining o‘rta qismida soyabonsimon rezervuarga ega. Sirtida buyum rangiga mos ravishda “shisha-ipdan” spiral shaklida o‘ralgan bezagi bor. Bunday qadahlar O‘rta Osiyo va Eron hududida keng tarqalgan [34]. Ular turli xil suyuq ichimliklarni iste‘mol qilishga mo‘ljallangan. Bu turdagi idishlar ham havoda puflab yengil aylantirish usuli bilan yasalgan.

Ko‘zasimon kurujkalar. Odatda keng bo‘g‘izli ko‘zalar deb yuritiladigan bu turdagi idishlarning ikkita namunasi Binkat–Toshkentdan [24], bitta namunasi Qanqadan topilgan [11]. Ular nisbatan shaffof och yashil rangda bo‘lib, havoda yengil puflab aylantirish usulida yasalgan. Idishlarning qornidan biroz ichkarida bo‘lgan bo‘yni og‘ziga tomon kengayib borgan. Qornining va og‘zining diametiri deyarli bir-biri bilan teng o‘lchamda. Disksimon tagligini o‘rta qismi ichkariga qarab biroz kirgan. Idishlardan birining sirtiga olcha rangdigi spiralsimon o‘ralgan “shisha-ip” bilan bezatilgan. Ularning arqonchasimon tutqichlar qalin bo‘lib, bu tutqichning bir uchi og‘zi yaqiniga, ikkinchi uchi qornining keng joyiga ulargan. Tutqichning yuqori qismida o‘ziga xos bo‘rtiq “toj-po‘pil”i bor. Ushbu turdagi idishlar ham keng tarqalgan idishlar qatoriga kiradi. Bunday idishlarning o‘xshashlari Afrosiyob [34], Axsiket [27], shuningdek, Misrdan [1] topib

o'rganilgan. Ko'zasimon shisha idishlar suyuqlikni saqlash, unga solingan suyuqliklarni kurujka, ruyumka va boshqa idishlarga taqsimlash hamda o'zidan ichishga mo'ljallangan. Shuni qo'shimcha qilish mumkinki, sopol va metallardan ham bunday tuzilishdagi ko'zasimon krujkalar ko'plab yasalgan. Ammo, sopol va metall idishlarning dastalarida ko'pincha qopqoqlar bo'lib, ular ushbu sopol va metall idishlarning dastasiga mahkamlangan. Shisha idishlardagi doirachalarda esa bu element bezak vazifasidan tashqari amaliy rol o'ynagan, ya'ni idishni qo'lda ushlaganda bosh barmoq shu do'nglikka tiralib turgan.

Ko'zachalar. Bu turdagi idish Binkat–Toshkent [24] va Kavardandan topilgan [12]. U ko'kimtir shaffof rangda bo'lib, havoda erkin puflash usulida yasalgan. Idish tuxumsimon, bo'yni tor va uzun, bo'ynining o'rta qismi tashqariga halqasimin biroz kengaygan rezervuali bor. Og'zining bir tomoni suyuqlik quyishga mo'ljallanib biroz cho'zilgan-novsimon qilingan. Disksimon tagligining o'rta qismi biroz ichkariga kirgan. Dastalari qalin bo'lib, uning bir uchi labiga, ikkinchi uchi yelkasiga tik ulangan. Dastasining tepasida, og'ziga yaqin joyida bo'rtib chiqqan “shox (toj)i” bor. Bu turdagi idishlardan suyuqliklarni xususan, vino, meva sharbatlarini saqlash va boshqa idishlarga taqsimlashda foydalanilgan.

Sharsimon uzun bo'g'izli idish – Grafinlar. Ularning shaffof och yashil, och siyohrang va sarg'ish rangdagilari bor. Bu turdagi idishlarning ayrimlari qolgan turdagilaridan ancha katta. 1973–1974-yilda yupqa devorli grafin Kavardandan topilgan [12]. Kichichik hajimlisi 1984-yilda Binkat–Toshkentning shahristonidagi 10-o'ra (badrab)dan, yirikroqlari esa 5-o'ra (badrab)dan topilgan [24]. Shuningdek, yiriklaridan yana biri 2014-yilda Banokat–Shohruxiyaning shahristonidan topilgan [2]. Idishlarning tuzilishi sharsimon yoki silindrsimon shakllarda bo'lib, ularning tubi ichkariga tomon biroz ko'tarilgan. Bo'yni esa uzun. Silindrsimon shakldagilarining og'zi tashqi tomonga gorizantal kengaygan bo'lsa, sharsimonlarining og'zi tashqariga tomon ancha qalinlashgan. Ayrimlarining keng qorin qismiga (ovalsimon) botiq-bo'rtma bezaklar berilgan. Katta grafin tanasi bo'ylab ezilgan joylar ko'rinishidagi naqshlar mavjud, kichigining cheti bo'ylab esa 7 yaproqli gul ko'rinishidagi botiq bezaklar tushirilgan. Har qaysi bezaklar shisha hali qotmasdanoq tushirilgan. Ba'zi idishlarning og'zi suv quyishga mo'ljallab nov-tarnovsimon qilinmaganligi sababli, ularning suyuqliklarni saqlashga mo'ljallanganli aytish mumkin. Buni ularni bo'g'zining torligi va qopqoq bilan yopishga mos qilib gorizantal egilganlili ham ko'rsatadi. Shuni ham aytish kerakki, bu turdagi shisha idishlar puflash paytida devorlarini ichkariga ezilgan yoki qovurg'alar hosil qilingan. Bu turdagi idishlarga o'xshashlari ham O'rta Osiyoning o'rta asr shaharlaridan [6], bundan tashqari Misr va Suriya hududlaridan ham topilgan [1]. Og'zi yoniqa qayrilmagan holda tashqariga qayrilgan, og'zini tashqarisi bo'ylab qo'shimcha shisha yopishtirilganlarining

o‘xshashlari Termiz, Marv, Afrosiyob, Quva, Uzgan kabi shaharlar xarobasida o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar davomida ko‘plab topilgan [2]. Bu o‘sha davrdagi hududlararo madaniy, savdo-iqtisodiy aloqalardan darak beradi.

Xo‘jalik-qurilish buyumlari. Bu guruhdagi buyumga Qanqa, Binkat, Shohruxiyadan topilgan deraza *oynalarini* kiritish mumkin. Deraza oynalari yassi, disk shakllardan iborat. Ular shaffof ko‘k rangli shishadan tayyorlangan. Ular deraza oynalari to‘plamidan iborat bo‘lgan va bir-biriga qulay joylashgan. Shunga o‘xshash mahsulotlar Afrosiyobdagi 9–10-asrlarga oid majmualarda ham qayd etilgan [34].

Sanitariya – gigena idishlari. Bu guruhdagi sog‘lik va tozalikni saqlashga xizmat qiladigan buyumlar xususan, bola beshigi tuvaklari va sumaklari kiradi. Ular shishadan nafis qilib ishlangan bo‘lib, quyidagicha tasniflanadi:

Tuvaklar. Tuvaklar ancha cho‘zinchoq shaklda bo‘lib, ularning tepasi deyarli to‘g‘ri burchak ostida yoniga burilgan. Ular hozirda bola beshigida ishlatiladigan zamonaviy tuvaklar o‘xshash. Bankat–Toshkentning shahristonidan (5-va 10-o‘ra (badrab) [24], Xarashkat–Qanqadan [11], Banokat–Shohruxiyadan [2] ularning namunalari topilgan. Ular shaffof sarg‘ish, och havo, qoramtr ranglarda bo‘lib, avval havoda erkin puflab, keyin qolipga solib, yana puflab tayyorlangan. Shu sababli, ularning bir qismi naqsh bilan qoplangan. Bezaklari shaxmat doskasi tartibida navbatma-navbat joylashgan “ellipsoid” shakllardan iborat. Ularning ayrimlarining bezaklari yuqorida aytilgan kosalarning naqshlarga ham o‘xshaydi. Tuvakning xiraroq-shaffof rangdagi naqshli va naqshsiz shisha tuvaklar keng tarqalgan shakllar qatoriga kiradi [3].

Sumaklar. Bu turdagi buyumlar Xarashkat–Qanqa va Banokat–Shohruxiyalardan topilgan. Ularning asosi naysimon shaklda, tepasiga yaqin joyi to‘g‘ri burchak ostida yoniga bukilgan (o‘g‘il bolaniki) yoki yoni ovalsimon teshilgan (qiz bolaniki). Bukilgan joyidan tepa qismi esa 2-3 tadan sharosimon “toj-shox”lar bilan yakunlangan. Ular hozirda bola beshigida ishlatiladigan zamonaviy sumaklarga o‘xshash. Sumaklar yosh chaqaloqlar beshikda yotishda qo‘yiladigan maxsus buyum bo‘lib, u beshikda yotgan balaning tagi ho‘l bo‘lmasligi ta‘minlashga xizmat qilgan [3; 10; 23; 24]. Ularning ham o‘g‘il, ham qiz bolalarga mo‘ljallangan nus‘halari bo‘lgan.

Dori-darmon va attorlik buyumlari. Bu turdagi buyumlar butun shisha buyumlari orasida kichik o‘lchamdaligi bilan ajralib turadi. Vazifasiga ko‘ra, u ikki: dori-darmon va attorlik (parfyumeriya) mahsulotlarini saqlash va ularni tayyorlash uchun ishlatiladigan idishlar guruhiga bo‘linadi. Birinchi guruhga flakonlar kiradi. Ular nisbatan shaffof och yashil rangli bo‘lib, havoda erkin puflab aylantirish va keyin qolipga solib puflash usulida tayyorlanadi. Idishning og‘zi naqshinkor, tanasi esa to‘plangan romblar va uchburchaklar ko‘rinishidagi bo‘rtma

naqshlar bilan bezatilgan. Ularda xushbo'y hidli yoki kosmetik suyuqliklar, kukunlar, parfyumeriya mahsulotlari saqlangan. Ularning rangi va naqshlar boshqa idishlarnikiga o'xshaydi. Ulardan ziravorlar solib oshhonada, dasturxonlarni bezatishda foydalanilgan.

Ikkinchi guruhdagilari kichkina kolbachalardan iborat bo'lib, ularning shaffof och yashil, sarg'imtir ranglilari bor [24]. Bu mitti idishchalar ham havoda aylantirib erkin puflash usulida yasalgan. Odatda, ularning bo'yinlari tarnovsimionlari, ba'zan ikkita tarnovlilari bo'lgan. Bu idishlardan dori-darmonlar va parfyumeriya tayyorlashda foydalanilgan. Shuningdek, ularda oz miqdorli qorishmalar (kichik dozalari), kuchli dozali qorishmalar aralashtirillgan. Buni ulardagi tarnovchalarning mavjudligi ko'rsatadi. Xuddi shunday maqsadda ishlatilgan kolbachalarni kimyoviy idishlar toifasiga kiritish ham mumkin. Chunki, dori-darmonlar va parfyumeriya ishlab chiqarish sof kimyoviy tartibdagi hodisalardir. Bu turdagi kichik hajmli idishchalarning O'rta Osiyoda keng tarqalgan [7].

Kimyoviy idishlar. Bu guruhdagi idishlarga kolba va alembikalar kiradi.

Kolbalar. Ularning yirik va kichiklarigacha bor [25]. Ular shaffof sarg'ish, och yashi rangda bo'lib, havoda erkin aylantirib puflash usulida yasalgan. ularning og'zi qopqoq bilan berkitishga mo'ljallangan. Idishlarning bo'yin qismida o'ziga xos ariqcha, shoxcha shaklidagi jumragi bo'lib, tagligi aylana, yelkasidan ichkariga to'g'ri bo'urchak ostida qisqargan va kalta bo'yni og'zi bilan qo'shilib ketgan. Kolbada, avvalo, suyuqliklar aralashtirish, kimyoviy reaksiyani amalga oshirish uchun termik ishlov berishda foydalanilgan. Ularning o'xshashlari Afrasiyob majmualaridan qayd etilgan [6; 34].

Alembikalar. Bu turdagi buyumlar Binkat–Toshkent [24] va Kavardandan topilgan [12]. Ularda ayrim sovuq holdagi moddalar-qorishmalar aralashtirilgan, moddalarga termik ishlov berilgan. Ular kolbalarining og'ziga juda qulay o'rnatishga mo'ljallab yasalgan. Ulardan yiriklaridan qandaydir suyuqliklarni, masalan, simob yoki distillangan suvni kondensatsiyalash uchun ham foydalanilgan [24]. Bu idishda tarnovcha qismi bo'lib, suyuqlik shu tarnovchada to'plangan va keyinchalik naycha bo'ylab boshqa idishga quyilgan. shunga o'xshash alembika Buxorodan topilgan [2]. Bundan tashqari xuddi shunday idishlar o'sha davrda Eronda ham keng tarqalganligi aniqlangan [3].

XULOSA

Xullas, 19-asr oxiri va 20-asrning boshlarida Toshkent vohasi – Shosh-Iloqdan topilgan 9–12-asrlarga oid shisha buyumlar shu davrda bunday hunarmandchilik mahsulotlarining keng tarqalganini, ularning shakl va turlari ko'p bo'lganligini bildiradi. Bu paytda vohada ishlab chiqarish shisha buyumlarni ishlab chiqarish –

usul-texnologiyasi va dizayn-bezaklari yuqori darajaga ko'tarilgan. Hududda shishasozlik an'anasi chuqur ildiz otgan. Shakli, rangi va bezaklari turlicha bo'lgan shisha buyumlar ko'pchiligii mehmonxonalarni bezab turish uchun tokchalarga terib qo'yilgan. Shu bilan birga, ular uyga kelgan mehmonlarni shohona kuzatishda va tantanalarni o'tkazish paytida dasturxonlarni bezatishda ishlatilganligini aytish mumkin. Badavlat odamlarning gigiyenik toza, bejirim va yorqin shisha idishlarga ehtiyoj baland bo'lgan. Voha aholisi uylarining derazalariga oynalar o'rnatilgan bo'lgan. 9–12-asrlardagi emizikli bolalari bo'lgan xonadonlarda funksional belgilariga ko'ra dekorativ xususiyatga ega bo'lmagan tuvaklar va sumaklar saqlanganligini qayt qilish kerak. Bu o'sha davrda bolalar beshiklari keng tarqalganligidan, gigiyenik jihatidan emizikdagi bolalari bo'lgan onalarning mehnatini sezilarli darajada yengillashtirganligidan dalolat beradi. Shisha idishlardan kimyoviy maqsadlarda, dori-darmonlarni aralashtirishda, kimyoviy elementlarni qizdirishda keng foydalanganligini, shu sohadagi bilimlarga ega bo'lgan mutahasislarning mavjud bo'lganligini aytish mumkin. Shuningdek, kichik hajmdagi dori-darmon va attorlik buyumlarining suyuqliq quyush-to'kishga mo'ljallangan bir yoki ikki novsimondagilari ulardagi suyuqliklarni me'yorlab quyish yoki aralashtirish uchun mo'ljallanganligini aytish mumkin.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Islamische kunsl. Loseblattkataiog Unpublizierter werke aus Deutschen museen. – Band 1. Glas. – Mainz/Rhein, 1984. – Pp. 9, 79. – Pag. 11, 77.
2. Normurodov D. R. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi (miloddan avvalgi XIII – milodiy XIII asr boshlari). – Toshkent: Rennans press, 2023. – 49-bet. II ilova. 51-rasm.
3. Абдуразаков А.А., Безбородов М.А, Заднепровский Ю.А. Стеклоделие Средней Азии в древности и средневековье. – Ташкент, 1963. – С. 13, 129. – Рис. 12:2–12:4, 13:19, 38:4, 38:9–38:10, 42:5.
4. Алимов Ў., Нормуродов Д. Р. Банокат – Шоҳрухия қалъаси // Moziydan sado. – Тошкент, 2016. – № 3.(71). – 12–13-бетлар.
5. Аминджанова М. О некоторых стеклянных сосудах Мавераннахра // ИМКУ. – Вып. 2. – Ташкент, 1961. – Рис. 2.
6. Аминджанова М. Средневековые стеклянные сосуды из музеев Ташкента и Самарканда // ИМКУ. – Вып. 3. – Ташкент, 1962. – Рис. 1:14–1:15, 1:17, 2:19, 3:3–3:6, 3:10, 3:16–3:17, 3:24.
7. Асқаров А., Исабеков Б., Жўрақулов Б., Мамиров О., Исмоилов У. 2023 йилда Тункат ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар: 2023. – Самарқанд, 2024. 73–79-бетлар.

8. Асқаров А., Матякубов Х., Нормуродов Д., Исабеков Б., Исмаилов У. Суюрлители ёдгорлигида олиб борилган археологик қазилмалар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар: 2020. – № 13. 37-бет.
9. Ахраров И. Средневековые стеклянные бокалы из Кувы // Изв. АН Узб. Серия общественных наук. – Ташкент, 1960. – № 4. – С. 22–28.
10. Байпаков К.М. Древняя и средневековая урбанизация Казахстана. По материалам исследований Южно-Казахстанской комплексной археологической экспедиции. Книга II. Урбанизация Казахстана в IX – начале XIII в. – Алматы, 2013.
11. Брусенко Л.Г., Галнева З.С. Материалы раскопок квартала X – начала XI вв. на городище Канка // ИМКУ. – Вып. 17. – Ташкент, 1982. – С. 124. – Рис. 1:26, 1:28–1:29.
12. Буряков Ю.Ф. Археологические материалы городища Кавардан // ИМКУ. – Вып. 13. – Ташкент, 1977. – С. 85–86. – Рис. 7.
13. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент, 1982. – С. 26, 28, 91.
14. Буряков Ю.Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса (Историко-археологический очерк Чача и Илака). – Ташкент, 1975. – С. 21–22.
15. Буряков Ю.Ф. Археологические материалы к истории Тункета и Абрлыга // Материалы по истории Узбекистана. – Ташкент, 1966. – С. 112–116, 139–145.
16. Верещагин В.В. Очерки, наброски, воспоминания В. В. Верещагина: с рисунками / Верещагин, Василий Васильевич. – Москва: Книга по Требованию, 2012. – С. 80–81.
17. Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра. – Ташкент, 1990. – С. 81–99.
18. Лаксман Э. О введении щелочной ископаемой соли на стеклоплавильных заводах вместо поташа. – СПб., 1795. – С. 16.
19. Массон М.Е. Прошлое Ташкента (археолого-топографический и историко-архитектурный очерк) // Известия АНУзССР. 1954. № 2. – С. 110.
20. Мирзаахмедов Д.К. Глазурованная керамика Ташкента XVII в. // Археологические работы на новостройках Узбекистана. – Ташкент, 1990.
21. Мирзаахмедов Д.К. Глазурованная керамика Ташкента конца XV– XVI вв. // ИМКУ. – Вып. 26. – Ташкент, 1992.
22. Мирзаахмедов Д.К., Адылов Ш.Т., Мухамеджанов А.Р. Стеклянные изделия из Пайкенда // Из истории культурного наследия Бухары. – Ташкент, 1990. – Рис. 1:1–1:10.

23. Мирзаахмедов Дж.К. Ремесло стеклоделов крупнейших городских центров средневекового Узбекистана IX–XV вв. (по материалам Бухары, Пайканды, Самарканды, Ташкента, Ахсикета и Кувы) // Археология Узбекистана. – Самарканд, 2011. – № 2(3). – С. 53, 71. – Рис. 1–5.

24. Мирзаахмедов Дж.К., Ильясова С., Адылов Ш.Т. Средневековое стекло и керамика Бинката–Ташкента IX – XI вв. Раздел 1. Стекланные изделия // ИМКУ. – Вып. 30. – Самарканд, 1999. – С. 237–245.

25. Нормуродов Д.Р. Банокат – Шохрухия қалъаси // Moziydan sado. – Тошкент, 2016. – № 3.(71). – 12–13-бетлар.

26. Нормуродов Д. Р. Банокат – Шохрухия шишасозлиги тарихидан // Меҳнат муҳофазаси ва ижтимоий ҳимоя. – Наманган, 2016. – № 1(71). 45–47-бетлар.

27. Папахристу О.А., Ахбаров И. Стекло из раскопа в Арке домонгольского городища Ахсикент // ИМКУ. – Вып. 16. – Ташкент, 1981. – Рис. 1:17–1:18, 1:20–1:21.

28. Ртвеладзе Э.В., Исхаков М. Два средневековых чаганианских селения // ИМКУ. – Вып. 15. – Ташкент, 1978. – Рис. 4:4.

29. Смирнов Е.Т. Древности в окрестностях города Ташкента // Средняя Азия. – Ташкент, 1896. – С. 134.

30. Смирнов Е.Т. Развалины города Канки // ПТКЛА. Приложение к протоколу. – Ташкент, 1900. – С. 167–184.

31. Филанович М.И. Бинкат–Ташкент и его округа // Древний и средневековый город Восточного Мавераннахра. – Ташкент, 1990.

32. Филанович М.И. Ташкент, зарождение и развитие города и городской культуры. – Ташкент, 1983. – С. 39, 152, 155, 158–159, 161, 184, 191. – Таб. 7.

33. Филанович М.И. Древняя и средневековая история Ташкента в археологических источниках. – Ташкента, 2010. – С. 44. – Рис. 33:А.

34. Шишкина Г.В. Ремесленная продукция средневекового Согда. – Ташкент, 1986. – Рис. 4–7, 10–13, 16, 29–30.

Нормуродов Д. Р.

Доцент., PhD кафедры «Археология и этнология»
Национальный университет Узбекистана
d.r.normurodov@mail.ru

СТЕКЛОДЕЛИЕ ТАШКЕНТСКОГО ОАЗИСА (ЧАЧ-ИЛАК) В IX-XII ВЕКАХ

АННОТАЦИЯ

В статье освещается стеклоделие Ташкентского оазиса 9-12 веков, которое в древности и средневековье было историко-культурным краем Чач, Шаш-Илак. В ней описывается изучение стеклянных изделий, найденных в ходе археологических исследований, проведенных в городищах оазиса с конца XIX века по настоящее время, таких как Бинкат-Ташкент, Бонокат-Шахрухия, Канка-Харашкат, Кабарна-Кавардан, Тункат-Имлок, Абрлиг-Облик, методы их приготовления, виды цветов и их функции. Отмечается, что в Шаш-Илаке производились высококачественные стеклянные изделия, производство которых было связано с эстетическим вкусом и культурой населения.

Ключевые слова: Шаш, Илак, Ташкент, Бинкат, Канка, Шахрухия, ремесло, стекло, стеклоделие, графин, колба.

Normurodov D. R.

Associate professor., PhD at the department of «Archeology and ethnology»
National University of Uzbekistan
d.r.normurodov@mail.ru

GLASS PRODUCTION OF THE TASHKENT OASIS (SHASH-ILAK) IN THE 9TH-12TH CENTURIES

ABSTRACT

The article covers the glassmaking of the 9th-12th centuries in the Tashkent oasis, which in ancient times and the Middle Ages was a historical and cultural region of Chach, Shash-Ilak. It describes the study of glass items found during archaeological research conducted in the oasis sites from the late 19th century to the present, such as Binkat-Tashkent, Bonokat-Shahruhiya, Kanka-Kharashkat, Kabarna-Kavardan, Tunkat-Imlok, Abrlig-Oblik, their preparation methods, types of flowers, and their functions. It is noted that high-quality glass products were produced in Shash-Ilak, the production of which was connected with the aesthetic taste and culture of the population.

Keywords: Shash, Ilak, Tashkent, Binkat, Kanka, Shahrukhiya, craft, glass, glassmaking, carafe, flask.